



General issues of the qualification of continuing crimes

Nargizakhon RAKHIMJONOVA¹

Tashkent State Law University

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2024

Received in revised form

15 November 2024

Accepted 25 November 2024

Available online

25 December 2024

Keywords:

Continuing crimes,
qualification,
time of crime commission,
time of crime completion.

ABSTRACT

This article provides a detailed analysis of the theoretical and practical aspects of qualifying continuous crimes. The issue was examined in two main directions: general and specific. General issues encompass problems arising in the criminal-legal characterization of all continuous crimes. This includes certain ambiguities in legislation and additional clarifications required for the correct classification of crimes. Specific issues are reflected in unique problems that arise when qualifying particular types of crimes, such as continuous theft, drug distribution, and continuous bribery. To address these issues, it is necessary to improve legislation, develop more precise approaches in judicial practice, and devise new methods for assessing crimes. The article presents possible solutions, methodologies, and practical recommendations for resolving these matters.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss12/S-pp188-196>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Davomli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning umumiy masalalari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

davomli jinoyatlar,
kvalifikatsiya,
jinoyat sodir etilgan vaqt,
jinoyatning tamom bo'lish
vaqti.

Ushbu maqolada davomli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlari batafsil tahlil qilingan. Muammo ikkita asosiy yo'nalishda, ya'ni umumiy va xususiy jihatlarda ko'rib chiqildi. Maqolada bu masalalarni yechish uchun mumkin bo'lgan yo'llar, metodologiyalar va amaliy takliflar taqdim etilgan.

¹ Senior Lecturer, Tashkent State Law University. Tashkent, Uzbekistan. E-mail: n.raximjonova@tsul.uz

Общие вопросы квалификации продолжающихся преступлений

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

продолжительные преступления, квалификация, время совершения преступления, время совершения преступления.

В данной статье представлен детальный анализ теоретических и практических аспектов квалификации продолжаемых преступлений. Проблема рассматривалась в двух основных направлениях: общем и специальном. Общие вопросы охватывают проблемы, возникающие при уголовно-правовой характеристике всех продолжаемых преступлений. Это включает в себя определенные неясности в законодательстве и необходимость дополнительных разъяснений для правильной квалификации преступлений. Специальные вопросы отражаются в уникальных проблемах, возникающих при квалификации конкретных видов преступлений, таких как продолжаемое хищение, сбыт наркотиков и продолжаемое взяточничество. Для решения этих вопросов необходимо совершенствовать законодательство, разрабатывать более точные подходы в судебной практике и новые методы оценки преступлений. В статье представлены возможные решения, методологии и практические рекомендации по разрешению этих вопросов.

Huquqni qo'llashning eng dolzarb muammolaridan biri – shaxsning sodir etgan qilmishida davomli jinoyat belgilarining mavjudligi yoki yo'qligiga oid shubhalarni bartaraf etish zarurati bilan bog'liq. Bunday shubhalar, asosan, davomli jinoyatning *subyektiv belgilarini* – o'xshash ijtimoiy xavfli qilmishlarni amalga oshirishga nisbatan yagona qasd, barcha alohida harakatlarning yagona motivi va umumiy maqsadga yo'naltirilganligini protsessual jihatdan aniqlash va isbotlashdagi qiyinchiliklar bilan bog'liq. Ko'pincha, huquqni qo'llovchi subyektlar qasd mazmunini, bir necha bor sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishlarning motiv va maqsadini faqatgina ishning obyektiv holatlari asosida belgilashga majbur bo'ladilar, bu esa ko'p hollarda davomli jinoyat alomatlarining mavjudligi yoki yo'qligi haqida aniq xulosalar chiqarishga imkon bermaydi.

Davomli jinoyatlarni bir qancha jinoyatlardan ajratish bilan bog'liq savolga mutaxassislar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma ishtirok etganlarning 70%i ***bir nechta harakatdan iborat jinoyat avtomatik ravishda davomli jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinishiga olib keladi***, deb fikr bildirgan. Masalan, agar shaxs O'zbekiston Respublikasi JKning 169-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan o'g'irlik jinoyatini bir nechta harakat orqali sodir etsa va talon-taroj miqdoridan kelib chiqib, qilmish O'zbekiston Respublikasi JKning 169-moddasi 4-qismi "a" bandiga muvofiq juda ko'p miqdorda davomli o'g'irlik sifatida baholansa, unda yagona qasd mavjudligiga shubha tug'lsa, sodir etilgan qilmish takroriy jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinishi kerak. Qilmish takroran jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinganda sud O'zbekiston Respublikasi JKning 59-moddasida nazarda tutilgan qoidalarini hisobga olgan holda jazo tayinlashi lozim. Aytaylik, shaxs bir nechta o'g'irlik harakatlarini amalga oshiradi, agar ushbu vaziyatda davomli jinoyatning belgilari mavjud bo'lsa, qilmish O'zbekiston Respublikasi JKning 169-moddasi tegishli qismi bilan davomli jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinishi kerak, takroriy jinoyat sifatida emas.

Fikrimizcha, o'xshash jinoyatlar (takroran sodir etilgan jinoyatlar, shu jumladan)ni kvalifikatsiya qilishda ayblanuvchining har bir qilmishga alohida yoki barcha qilmishlarga yagona qasd bilan yondashganligi borasida shubha tug'lsa, harakatlar ikki xil tarzda: davomli jinoyat sifatida ham, takroriy jinoyat sifatida ham kvalifikatsiya qilinishi lozim. Bunday hollarda, ikkala kvalifikatsiya varianti bo'yicha nazarda tutilgan jazolar taqqoslanib, Konstitutsiyaning 20-moddasi 4-qismiga muvofiq, ya'ni "inson bilan davlat organlari o'rtasidagi munosabatlarda yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson manfaatlariga mos ravishda talqin qilinishi" tamoyiliga asosan, yengilroq jazo qo'llanilishi kerak.

Davomli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning umumiy muammolarini ko'rib chiqishda uning **sodir etilgan vaqtini belgilash** masalasi e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Ushbu masala amaliy ahamiyatga ega, chunki davomli jinoyatning sodir etilgan vaqti qo'llanishi lozim bo'lgan jinoyat qonunini tanlash (jinoyat qonunining vaqt bo'yicha amal qilishi), jinoyat uchun javobgarlik muddati hisoblash, amnistiya qo'llash kabi jihatlariga ta'sir ko'rsatadi.

Afsuski, jinoyat qonunchiligida davomli jinoyatning sodir etilgan vaqti aniq tartibga solinmagan. O'zbekiston Respublikasi JKning 13-moddasida umumiy qoida mavjud bo'lib, unga ko'ra JK moddasida harakat yoki harakatsizlik sodir etilgan vaqt jinoyat tugallangan deb hisoblansa, ijtimoiy xavfli xatti-harakat bajarilgan vaqt jinoyat sodir etilgan vaqt deb topiladi, agar Kodeks moddasida jinoiy oqibat yuz berishi bilan jinoyat tugallangan deb hisoblansa, jinoiy oqibat yuz bergan vaqt jinoyat sodir etilgan vaqt deb topiladi. Biroq, JKning 13-moddasiga asoslanib davomli jinoyatning sodir etilgan vaqtini aniqlashning iloji yo'q, chunki bunday jinoyat vaqt oralig'ida sodir etilgan bir nechta ijtimoiy xavfli harakatlar (yoki harakatsizlik)ni o'z ichiga oladi.

Aslida davomli jinoyat ushbu jinoyat tarkibiga kiruvchi birinchi harakat amalga oshirilgan paytdan oxirgi harakat tugagan vaqtgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bu masalaga **"Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"**gi plenum qarorida baho berilgan bo'lib, unga ko'ra davomli jinoyat yagona qasd bilan qamrab olingan bir qator o'xshash harakatlarning birinchisi sodir etilgan paytdan boshlanib, oxirgisi sodir etilgan paytda tugaydi. Boshqacha aytganda, davomli jinoyatning sodir etilgan vaqti xronologik ma'noda aniq bir vaqt oralig'idir (birinchi harakatdan so'nggi harakatgacha) va bu davr yetarlicha uzoq bo'lishi mumkin.

Ammo, davomli jinoyatning sodir etilgan huquqiy (*de jure*) vaqtiga asoslanib, qo'llanishi lozim bo'lgan jinoyat qonunini tanlash va javobgarlik muddati hisoblash bilan bog'liq huquqni qo'llash masalalarini hal qilib bo'lmaydi. Shuning uchun huquqni qo'llash amaliyotida yuridik fiksiya qo'llaniladi, unga ko'ra davomli jinoyatning haqiqiy sodir etilgan vaqti – davomli jinoyat tarkibiga kiruvchi oxirgi harakat (yoki harakatsizlik) amalga oshirilgan vaqtga qisqartiriladi.

Bu borada quyidagi sud hukmini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Sudlanuvchi B.Umarov, aldash va ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini qo'lga kiritish maqsadida, 2021-yil 18-oktyabr kuni Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Beshqayrag'och ko'chasi, 40-uy oldida jabrlanuvchi Razikov Umid Mamed o'g'liga tegishli, "Lifan26D" rusumli skuter mototransport vositasini 400 AQSh dollariga sotib olishini va'da qilib, unga 900.000 so'm pullarni berib ishonchiga kirgan va mototransport vositasini firibgarlik yo'li bilan qo'lga kiritib, boshqa shaxslarga 200 AQSh dollariga sotib yuborgan.

Bundan tashqari, sudlanuvchi B.Umarov jinoiy harakatlarini davom ettirib, 2022-yil 2 yanvar kuni, Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Beshqayrag'och ko'chasi, 40-uy, 61-xonadonda yashovchi jabrlanuvchi Xabibullayeva Aziza Baxodir qizining uyiga mehmonga kelib, A.Xabibullayevaga tegishli "IpotekaBank" ATIB Yunusobod filiali tomonidan berilgan 9860010106859845 raqamli plastik kartasida katta miqdorda pul mablag'i borligini bilganligi sababli, A.Xabibullayevaning kartasidagi ushbu pul mablag'larini yashirin ravishda talon-toroj qilishni yagona maqsad qilgan va shu maqsadini amalga oshirish uchun plastik kartasini qo'lga kiritib, shu kuni jami 3.030.000 so'm pullarni, 2022-yil 4-yanvar kuni, 1.573.500 so'm va 2022-yil 5-yanvar kuni 20.500.000 so'm pullarni naqdlashtirish orqali jami 25.103.500 so'mni o'g'irlab, o'zining ehtiyojlari uchun ishlatib yuborgan.

Keltirilgan misolda davomli jinoyat sodir etilgan vaqt deb o'xshash jinoyat harakatlaridan oxirgisi – 2022-yil 5-yanvar sanasi tan olingan. Vaholanki, aslida ushbu jinoyat uchta jinoiy harakatdan iborat bo'lib, 2022-yil 2-yanvardan 5-yanvargacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan.

Bunday yondashuv to'liq asosli deb hisoblanadi, chunki davomli jinoyatni tashkil etuvchi harakatlar (yoki harakatsizliklar) mustaqil huquqiy ahamiyatga ega emas, balki faqat bir butunlikda baholanadi. Shuning uchun, davomli jinoyatning haqiqiy (de facto) vaqtini aniqlash faqat umumiy holda davomli jinoyatning oxirgi jinoyat harakati (ixtiyoriy yoki majburiy ravishda) sodir etilgan vaqtdan kelib chiqishi asosli.

Bunday tushunchalar davomli jinoyatning sodir etilish vaqtini aniqlash borasida jinoyat huquqi nazariyasida ham keng tarqalgan [1]. Biroq doktrinada boshqa bir qarash ham mavjud bo'lib, unga ko'ra davomli jinoyatning sodir etilgan vaqtini qilmishda ijtimoiy xavfli oqibatlarining mavjudligi yoki yo'qligiga qarab farqlash zarur. Xususan, ushbu nuqtai nazarni A.M.Orazdurdiev yoqlab, "davomli jinoyatning sodir etilgan vaqti deb oxirgi ijtimoiy xavfli harakatning amalga oshirilgan vaqtini hisoblash kerak, agar jinoyat oqibatlari ro'y bergan bo'lsa, unda bu oqibatlarining sodir bo'lgan vaqti davomli jinoyatning sodir etilgan vaqti deb hisoblanishi lozim", – deb hisoblaydi.

Biroq, bizningcha bu fikr biroz bahsli. Chunki, shaxs o'zining harakatlarining jinoyat-huquqiy oqibatlarini faqat jinoyat qonunchiligiga murojaat qilish orqali, ya'ni harakat sodir etilgan vaqt davomida amalda bo'lgan qonunga asoslanib taxmin qilishi mumkin. Agar davomli jinoyat moddiy tarkib asosida, oqibatlar yuzaga kelgan paytdagi jinoyat qonuniga ko'ra baholansa, unda shaxsni oldindan taxmin qilinmagan, yanada qattiqroq javobgarlikka tortish zarurati yuzaga kelishi mumkin. Bu esa, aniq ravishda, ayb uchun javobgarlik prinsipiga zid hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagicha xulosa qilish mumkin:

– davomli jinoyatning **sodir etilgan vaqti** deb uning tarkibiga kiruvchi oxirgi jinoyat harakatining amalga oshirilgan vaqtini hisoblash kerak. Amaliy jihatdan bu quyidagilarni anglatadi:

– davomli jinoyatning jinoiyligi va jazoga sazovorligi oxirgi jinoiy harakat sodir etilgan vaqtdagi jinoyat qonuni asosida aniqlanadi. Ushbu qoida O'zbekiston Respublikasining "Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to'g'risida" gi Plenum qarorida berilgan bo'lib, unga ko'ra davomli jinoyat bir necha xatti-harakatlardan oxirgisi sodir etilgan paytdan boshlab tugallangan deb hisoblanishi tufayli, jinoyat qonuniga bu qilmish uchun jazoni kuchaytiradigan yoki shaxsning holatini boshqacha tarzda yomonlashtiradigan o'zgartirishlar kiritilganda, agar

jinoyat epizodlaridan hech bo'lmaganda bittasi qonun yangi tahrirda amal qila boshlagan davrda sodir etilgan bo'lsa, davomli jinoyatning barcha epizodlari yangi qonun bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi kerak.

- davomli jinoyatni jinoiy javobgarlikka tortish muddatlari oxirgi jinoiy harakat sodir etilgan kundan boshlab hisoblanadi;

- davomli jinoyatlarga nisbatan amnistiya akti, faqat bu jinoyatlar amnistiya akti kuchga kirgunga qadar tamomlangan bo'lsa, qo'llaniladi, agar davomli jinoyat tarkibiga kiruvchi harakatlardan biri amnistiya e'lon qilinganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, qilmishga nisbatan amnistiya qo'llanilmaydi.

Davomli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishdagi yana bir muammolardan biri, shubhasiz, **davomli jinoyatlarning tamom bo'lish vaqtini** aniqlash sanaladi. Ushbu masalaga **“Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida”**gi plenum qarorida baho berilgan bo'lib, unga ko'ra davomli jinoyat yagona qasd bilan qamrab olingan bir qator o'xshash harakatlarning birinchisi sodir etilgan paytdan boshlanib, oxirgisi sodir etilgan paytda tugaydi. Shunga asosan, davomli jinoyat faqatgina jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan belgilangan oxirgi harakat amalga oshirilgandan keyin huquqiy jihatdan tugagan deb hisoblanadi.

Biroq, muammo shundaki, davomli jinoyatning huquqiy tugallanishi vaqti to'g'risidagi bu qoidalar ko'pgina hollarda noto'g'ri qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 22-dekabr “Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida”gi 16-sonli Qarori davomli jinoyatning haqiqiy (de facto) tugash vaqtini belgilaydi, bu esa har doim uning yuridik (de jure) tugash vaqtiga mos kelavermaydi. Misol uchun, qalbaki pul belgilari yoki qimmatli qog'ozlarni tayyorlash, keyinchalik sotish maqsadida hatto bitta pul belgisi yoki qimmatli qog'oz tayyorlangan bo'lsa ham, bu qalbaki pullarni sotishga erishilgan yoki erishilmaganidan qat'i nazar, tugallangan jinoyat hisoblanadi. Qalbaki pullar yoki qimmatli qog'ozlarni tayyorlashni davom ettirish, amalda tugallanishidan oldin ham, yuridik jihatdan tugallangan jinoyat sifatida baholanadi. Odatda, qalbaki pul yasashda bir nechta qalbaki pullar ishlab chiqarish amalga oshiriladi, ammo jinoyatning yuridik tamom bo'lish vaqti bir dona qalbaki pul ishlab chiqarilgan vaqt bilan belgilanadi. Demak, qalbaki pul tayyorlashning davomli jinoyati hatto u hali to'liq yakunlanmagan bo'lsa-da, huquqiy jihatdan tugagan deb hisoblanadi va bu davomli jinoyatlar uchun yuridik (de jure) yakunlanishning aniqlanishida qo'shimcha murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Chunki ularning tugashi faqat oxirgi harakat bilan bog'liq emas, balki jinoyatning umumiy maqsadi va o'ziga xos xususiyatlariga ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Ta'kidlab o'tilganidek, davomli jinoyatlar bo'yicha yakuniy harakatni huquqiy jihatdan aniqlash muammosi, ayniqsa nisbatan aniq (konkretlashgan) qasd bilan amalga oshirilgan jinoyatlar uchun murakkablik tug'diradi. Bunday jinoyatlarda aybdor shaxs o'zining jinoiy harakatlarini qancha muddat davom ettirishini yoki qancha miqdorda amalga oshirishini aniq bilmasligi mumkin, chunki u shunchaki har bir jinoyatni davom ettirishni maqsad qilgan bo'ladi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi JKning 168-moddasida belgilangan firibgarlikda shaxs, aytaylik, qalbaki hujjatlar asosida pensiyani noqonuniy oladi va bu harakatni imkon boricha uzoqroq davom ettirishni rejalashtiradi. Ehtimol shaxs ushbu faoliyatni butun umri mobaynida davom ettirishni maqsad qilgan, ammo bu qanchalik davom etishi yoki qancha pulni o'zlashtirishi oldindan aniq emas. Agar jinoyatni aniqlashda faqat so'nggi

harakatni inobatga olsak, firibgarining qilmishi tamom bo'lgan jinoyat sifatida emas, balki jinoyat orqali olingan mablag' miqdoridan qat'i nazar jinoyatga suiqasd deb baholanishi kerak.

Biroq, bunday yondashuv tamom bo'lmagan jinoyatning umumiy kvalifikatsiya qoidalariga zid keladi, chunki qasddan sodir etilgan jinoyatga suiqasd qilish faqat aniq(konkretlashgan) qasddan bo'lishi mumkin. Lekin, D. Kamalovanning fikricha, jinoyat sodir etishga suiqasd aniqlashtirilmagan qasd bilan ham sodir etilishi mumkin. Bu qoida davomli jinoyatlarga ham to'liq taalluqlidir [1]. Bu masalaga urg'u berar ekan, A.M. Orazdurdyev "Davomli jinoyatni tamom bo'lmagan jinoyatning qoidalari asosida kvalifikatsiya qilish faqatgina jinoyat aniq (konkret) qasddan sodir etilgan va aybdorning qasd qilgan jinoyatni tamom bo'lishiga erisha olmagan hollarda mumkin", deb ta'kidlaydi [1]. Shu sababli, ko'rib chiqilayotgan holatda aybdorning qasdi aniq belgilanmaganligi sababli, uning harakatlari faqat sodir bo'lgan oqibatlar asosida kvalifikatsiya qilinishi kerak. Bu shuni anglatadiki, qalbaki hujjatlar asosida pensiya olayotgan firibgarining harakatlari talon-toraj summasidan kelib chiqib JKning 168-moddasi tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Demak, davomli jinoyatning huquqiy tamom bo'lish vaqti ko'p jihatdan aybdorning qasdi va maqsadining aniqlik darajasiga bog'liq. Shu jihatni inobatga olgan holda, jinoyat-huquqiy adabiyotlarda davomli jinoyatning huquqiy tamom bo'lish vaqtini aniqlashda farqlangan yondashuv taklif qilingan va bu yondashuvni qo'llab-quvvatlovchilar anchagina. Unga ko'ra, aniq belgilangan qasd bilan sodir etilgan davomli jinoyat kutilgan oqibat yuzaga kelgan paytda yoki rejalashtirilgan oxirgi harakat amalga oshirilgan paytda huquqiy tamom bo'lgan jinoyat deb hisoblanadi. Aniq belgilanmagan qasd bilan sodir etilgan davomli jinoyat esa, har qanday bosqichda, jinoiy ahamiyatga ega zarar yetkazilgan vaqtda (sodir bo'lgan oqibatlar asosida) tamom bo'lgan deb baholanadi [1].

Umuman olganda, aniq va aniqlanmagan qasd bilan sodir etilgan davomli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda farqli yondashuv zarurligini qo'llab-quvvatlagan holda, davomli jinoyatlarning huquqiy tugashini aniqlash bo'yicha taklif qilingan tavsiyalarni ishlab chiqish zaruratini ta'kidlab o'tmoqchimiz. Shu bilan birga, aniqlanmagan qasd bilan sodir etilgan davomli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish bo'yicha zarur tavsiyalarni ishlab chiqish zarurati ham yo'q emas. Ushbu turdagi davomli jinoyatlar haqiqatan ham sodir bo'lgan oqibatlarni hisobga olgan holda kvalifikatsiya qilishni talab qiladi, ya'ni jinoyat aniqlangan turdagi jinoyat tarkibiga ega bo'lgan vaqtda, hatto bu vaqtdan keyin aybdor bir xil jinoyatlarni davom ettirsa ham, huquqiy tamom bo'lgan deb hisoblanadi. Masalan, agar chet el razvedkasi tomonidan jalb qilingan va davlat sirlariga kirish huquqiga ega bo'lgan shaxs, unga ma'lum bo'lgan har qanday sirni oshkor qilishni maqsad qilgan bo'lsa, uning hajmi hamda ahamiyatini aniq bilmagan holda davom etayotgan davlatga xoinlik jinoyati, davlat sirini birinchi marta oshkor qilinishi bilan huquqiy(de jure) tamom bo'lgan deb hisoblanadi [1].

Shu bilan birga, aniq qasd bilan sodir etilgan davomli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish bo'yicha tavsiyalarni qabul qilish juda qiyin. Ushbu tavsiyalar, aslida, "Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo'llashning ayrim masalalari" to'g'risidagi Oliy sud Plenum Qarorining 9-bandida bayon etilgan tushuntirishlarga asoslanadi. Ammo ilgari ta'kidlanganidek, mazkur tushuntirishlar faqat davomli jinoyatlarning faktik yakunlanishiga tegishli bo'lib, ularni huquqiy yakunlanishiga aniqlik kiritishda qo'llash mumkin emas.

Ushbu xulosani quyidagi misol bilan tushuntirishga harakat qilamiz. O'zining maqsadini amalga oshirish uchun ekstremistik faoliyatni targ'ib qilishni istagan shaxs ma'lum bir millat vakillariga nisbatan zo'ravonlikka chaqiruvchi 10 ta varaqa tayyorlab, ularni jamoat joylarida tarqatishni rejalashtirdi, ammo u 3 ta varaqani yopishtirgach qo'lga tushdi. Bu holatda, jinoyatchi tomonidan rejalashtirilgan ekstremistik faoliyatga chaqiruvlar hali to'liq amalga oshirilmagan bo'lsa-da, ularni huquqiy yakunlangan deb hisoblash lozim. Yuqoridagi misol, davomli jinoyatni huquqiy yakunlashni aniqlashda "Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo'llash" to'g'risidagi Oliy sud Plenum qarorining 9-bandida berilgan tushuntirishlar befoyda ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Aniq qasd bilan davomli jinoyatning huquqiy tugash vaqti jinoyat sodir etgan shaxs tomonidan qo'yilgan maqsadga, shuningdek, uning jinoiy-huquqiy ahamiyatiga bog'liqdir. Ushbu omillarni (maqsadning parametrlari va uning jinoiy-huquqiy ahamiyatini) hisobga olgan holda, davomli jinoyatning qonuniy tamom bo'lish vaqti quyidagi qoidalar asosida belgilanishi kerak:

- jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega bo'lmagan aniq maqsad bilan sodir etiladigan davomli jinoyat: agar jinoyat sodir etgan shaxs ko'zlayotgan maqsad jinoyat kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmasa, jinoyat tarkibining barcha belgilariga mos kelgan paytdan boshlab u huquqiy jihatdan tugallangan deb hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, aniq maqsadga erishish jinoyatning tugallangan deb tan olinishiga ta'sir qilmaydi.

- maqsadning miqdoriy parametrlari jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega bo'lsa: davomli jinoyat jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega miqdordagi maqsadga erishilgan vaqtdan boshlab huquqiy jihatdan tugallangan deb hisoblanadi.

- maqsadning sifat jihatlari huquqiy ahamiyatga ega bo'lsa: Bunday holda davomli jinoyat sifat jihatdan aniqlangan hajmdagi maqsadga erishilgan vaqtdan boshlab qonuniy tugallangan deb tan olinadi (bunday hollarda jinoyatning qonuniy va amaldagi tugallanish payti bir-biriga mos keladi) [1].

Demak, moddada kvalifikatsiya belgisi sifatida keltirilgan maqsadni ko'zda tutuvchi davomli jinoyat ushbu maqsadga erishilgan paytdan boshlab jinoiy-huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan darajada huquqiy tugallangan deb topiladi [1].

XULOSA

Davomli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning umumiy muammolarini tahlil qilishni yakunlar ekanmiz, quyidagilarni xulosalarni ilgari suramiz:

1. O'xshash jinoyatlar (takroran sodir etilgan jinoyatlar, shu jumladan)ni kvalifikatsiya qilishda ayblanuvchining har bir qilmishga alohida yoki barcha qilmishlarga yagona qasd bilan yondashganligi borasida shubha tug'lsa, harakatlar ikki xil tarzda: davomli jinoyat sifatida ham, takroriy jinoyat sifatida ham kvalifikatsiya qilinishi lozim. Bunday hollarda, ikkala kvalifikatsiya varianti bo'yicha nazarda tutilgan jazolar taqqoslanib, Konstitutsiyaning 20-moddasi 4-qismiga muvofiq, ya'ni "inson bilan davlat organlari o'rtasidagi munosabatlarda yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson manfaatlariga mos ravishda talqin qilinishi" tamoyiliga asosan, yengilroq jazo qo'llanilishi kerak.

2. Davomli jinoyatni sodir etish vaqtini aniqlashda huquqni qo'llash amaliyotida yuridik fiksiya qo'llaniladi, uning yordamida jinoyatning obyektiv tomonini amalga oshirish vaqti – davomli jinoyat tarkibiga kiruvchi so'nggi harakat (harakatsizlik) amalga oshirilgan vaqtga qisqartiriladi. Bunday yondashuv davomli jinoyatni tashkil etuvchi harakat (harakatsizlik) lar o'z-o'zidan yuridik ahamiyatga ega bo'lmasligidan, ular birlikda

baholanishidan kelib chiqib to'liq asosli deb hisoblanadi. Shuning bois davomli jinoyatning yuridik (huquqiy) vaqtini aniqlash faqat davomli jinoyatning umumiy yakunlanish (ixtiyoriy yoki majburiy) vaqti bilan belgilanishi mumkin.

4. Aniqlashtirilmagan qasd bilan sodir etilgan davomli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda amalda yuz bergan oqibatlardan kelib chiqish lozim, ya'ni qilmish muayyan turdagi jinoyat tarkibi belgilariga ega bo'lgan paytdan boshlab, hatto shundan keyin ham aybdor aynan bir xildagi g'ayriqonuniy qilmishlarni sodir etishda davom etsa ham, ularni yuridik jihatdan tugallangan deb e'tirof etish lozim.

5. Aniq qasd bilan amalga oshirilgan davomli jinoyatlarning yuridik tugash vaqti aybdorning qo'ygan maqsadining parametrlariga hamda uning jinoyat-huquqiy ahamiyatiga bog'liqdir: agar davomli jinoyatning aniq maqsadi jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega bo'lmasa (kvalifikatsiyaga ta'sir etmasa), tegishli jinoyat tarkibining barcha belgilari namoyon bo'lgan paytdan boshlab yuridik jihatdan tugallangan deb hisoblanishi kerak. Agar maqsadning miqdor ko'rsatkichlari jinoiy-huquqiy ahamiyatga ega bo'lsa, davomli jinoyatni ushbu maqsadga jinoiy-huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan hajmda erishilgan paytdan boshlab yuridik jihatdan tugallangan deb hisoblash lozim. Agar maqsadning sifat ko'rsatkichlari yuridik ahamiyatga ega bo'lsa, davomli jinoyat ushbu maqsadga erishilgan paytdan e'tiboran yuridik jihatdan tugallangan deb hisoblanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аитова О.Ф. Уголовно-правовые проблемы времени преступления: Дис. ... канд. юрид. наук. – Саратов, 2016. – С. 134-135; Бойцов А.И., Волженкин Б.В. Уголовный закон: действие во времени и пространстве: учебное пособие. – СПб., 1995. – С. 10-11; Блум М.И., Тилле А.А. Обратная сила закона. – М., 1969. – С. 38-43; Мельников М.Г. Действие уголовного закона во времени и пространстве: Дис. ... канд. юрид. наук. – Рязань, 1999. – С. 103; Якубов А.Е. Время совершения преступления и обратная сила уголовного закона // Российская юстиция. – 1997. – № 8. – С. 35 и др.

2. Ораздурдыев А.М. Продолжаемое преступление по советскому уголовному праву: Дис. ... канд. юрид. наук. – Казань, 1984. – С. 14-15.

3. Семернёва Н.К. Квалификация преступлений (части Общая и Особенная): науч.практ. пособие. – М., 2010. – С. 99; Квалификация преступлений: учебное пособие / под ред. докт. юрид. наук, доц. К.В. Ображиева и докт. юрид. наук, проф. Н.И. Пикурова. – М.: Юрлитинформ, 2016. – С. 197.

4. Ораздурдыев А.М. Продолжаемое преступление по советскому уголовному праву: Дис. ... канд. юрид. наук. – Казань, 1984. – С. 12.

5. Квашиш В., Крутов Ю. Некоторые вопросы квалификации продолжаемых преступлений // Советская юстиция. – 1966. – № 12. – С. 17; Дёмин В.Ф. Социальная обусловленность законодательного конструирования единого сложного преступления и его квалификация: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 1989. – С. 22; Кузнецова Н. Квалификация сложных составов преступлений // Уголовное право. – 2000. – № 1. – С. 32; Романюк С.Н. Сложные единичные преступления: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Тюмень, 2008. – С. 18; Курс уголовного права: в 4-х т. Т. 2: Общая часть. Учебник для вузов / под ред. д-ра юрид. наук, проф. М.А. Кириллова и д-ра юрид. наук, проф. В.И. Омигова. – Чебоксары – Пермь: ЧКИ РУК, 2015. – С. 116.

6. Чикин Д.С. Сложные единичные преступления: уголовно-правовая характеристика, проблемы квалификации и законодательного конструирования: Дис. ... канд. юрид. наук. – Краснодар, 2013. – С. 76.

7. Гарбатович Д.А., Сумский Д.В. Отграничение совокупности преступлений от единичных сложных преступлений // Уголовное право. – 2015. – № 1. – С. 28-34.